

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
425 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvi tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foydalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari.....	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	



TIJORAT BANKNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRUVCHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH

Umarov Davron Shavkatovich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan. Ushbu maqsadda bank mijozlari o'rtasida sotsiologik so'rovnomma o'tkazilgan. Mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tizimlashtirilgan va ularga nisbatan mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar asosida bank daromadlari asosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlari nazariy asoslari tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: bank daromadi, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. The article focuses on the assessment of factors affecting the financial stability of commercial banks. For this purpose, a sociological survey was conducted among bank customers. Researches carried out in foreign and local scientific literature on the topic are systematized and author's approaches to them have been developed. On the basis of research, the theoretical foundations of the directions for ensuring financial stability based on bank income have been systematized.

Keywords: bank income, interest income, non-interest income, financial stability.

Аннотация. Статья посвящена оценке факторов, влияющих на финансовую устойчивость коммерческих банков. С этой целью среди клиентов банка был проведен социологический опрос. Систематизированы исследования, проведенные в зарубежной и отечественной научной литературе по теме, и разработаны авторские подходы к ним. На основе исследования систематизированы теоретические основы направлений обеспечения финансовой устойчивости на основе банковских доходов.

Ключевые слова: банковские доходы, процентные доходы, непроцентные доходы, финансовая устойчивость.

KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi – zamonaviy moliya tizimining eng muhim va murakkab kategoriyalaridan biri bo'lib, u bank faoliyatining umumiy samaradorligini, iqtisodiy tizimdagi rolini va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ishonch darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiyotning alohida sektori, balki butun makroiqtisodiy barqarorlikning asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan, banklar faoliyatining moliyaviy natijalari, kapital yetariligi, aktivlar rentabelligi, likvidlik darajasi, risklarni boshqarish tizimi kabi omillarni chuqur tahlil qilish bilan bir qatorda, sotsiologik va psixologik jihatlarni ham ilmiy tadqiqot doirasiga kiritish zaruratga aylandi.

Ilmiy adabiyotlarda bank moliyaviy barqarorligi odatda moliyaviy natijalar bilan o'lchanadi, ya'ni bankning foydalilik darajasi, rentabellik koeffitsientlari, aktivlarning sifati kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu yondashuv har doim to'liq tasavvur hosil qilmaydi, chunki moliyaviy barqarorlik — faqat raqamli ko'rsatkichlar majmui emas, balki inson omili, boshqaruv madaniyati, ichki motivatsiya va ijtimoiy-psixologik muhit bilan ham uzviy bog'liq jarayondir. Shu sababli, so'nggi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlarda bank barqarorligini baholashda integratsiyalashgan yondashuv — ya'ni miqdoriy va sifat omillarni uyg'unlashtirgan tahlil usullari keng qo'llanilmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda nafaqat statistik va moliyaviy ko'rsatkichlar, balki xodimlarning fikri va tajribasiga asoslangan sotsiologik ma'lumotlar ham o'rganildi. Bu yondashuv bank tizimidagi ichki muammolarni aniqlash, qaror qabul qilish jarayonlarining sifat darajasini baholash, hamda xodimlar motivatsiyasining barqarorlikka ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur holat,



o'z navbatida, moliyaviy barqarorlikning chuqurroq va kompleks bahosini shakllantirish uchun zarur ilmiy asos yaratadi.

2024-yil avgust oyida ATB "O'zsanoatqurilishbank" tizimida o'tkazilgan sotsiologik so'rov ana shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida bankning viloyat, tuman va shahar miqyosidagi filiallari hamda xizmat ko'rsatish markazlarida faoliyat yuritayotgan 901 nafar xodim ishtirok etdi. So'rovnoma https://docs.google.com/forms/d/1PC90xiQJDhj6xjioYct-OnUdDtvXmtgBpVy_Brbb6Mk/edit elektron manzilida joylashtirilgan bo'lib, ishtirokchilarga bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash, mavjud muammolar va imkoniyatlar haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyati berildi.

So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, bank xodimlarining fikricha, moliyaviy barqarorlikka eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar — bu kapital yetarliligi, aktivlarning sifatli boshqarilishi, mijozlar bilan ishonchli munosabatlarning shakllanishi, shuningdek, rahbariyatning strategik qarorlar qabul qilishdagi professionalligi hisoblanadi. Shu bilan birga, inson resurslarini boshqarish samaradorligi, xodimlarning mehnat motivatsiyasi va o'z kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish darajasi ham moliyaviy barqarorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini faqat iqtisodiy va buxgalteriya ko'rsatkichlari orqali emas, balki inson omili va boshqaruv sifatiga asoslangan yangi tahliliy yondashuv orqali baholaydi. Natijada, bu izlanish bank sektorida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqishda, xodimlar motivatsiyasini oshirish va boshqaruv madaniyatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash — bu nafaqat kapital va aktivlar hajmini oshirish, balki ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, inson resurslarini samarali yo'naltirish va tashkiliy madaniyatni rivojlantirish jarayonidir. Shuning uchun ushbu tadqiqot natijalari bank sektorida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi ilmiy konseptual yondashuvni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda O'zbekistonda ko'plab davlat banklarining kapitali tarkibida davlat ulushini qisqartirish va shu orqali ularni xususiyashtirishga qaratilgan islohotlar nazarda tutilmoqda. Bu esa, banklarning investitsion jozibadorligini ta'minlashda moliyaviy rentabellikning muhim ahamiyatga ega ekanligini o'zida ifodalab beradi.

2024-yil mart oyida Toshkentda bo'lib o'tgan forumda Fitch Ratings agentligi direktor o'rinbosari Pavel Kaptel mamlakatimizdagi banklarni xususiyashtirish jarayonlari yuzasidan o'zining xulosalarini bayon etdi [1]. Unga ko'ra, davlat banklarining xususiyashtirilishi jarayonida ularning rentabellik ko'rsatishlari zarurligi, bu esa ularning jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilib xususiyashtirishni tezlashtirishga olib kelishini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, mamlakatimizda bank tizimining 2024-yil birinchi yarim yillikdagi sof foydasi 5,5 trln. so'm bo'lgan bo'lsada, 2023-yilning shu davriga nisbatan 10 foizga yoki 560 mlrd. so'mga kamayganligini qayd etish lozim. O'tgan yilga nisbatan sof foydasi oshgan banklar ichida davlat banklari ulushi bo'lsada, ularning miqdori kichikligicha qolmoqda. Jumladan, Biznesni rivojlantirish banki -378,1 mlrd so'm zarar bilan 2024-yilning yarim yilligini yakunlaganligini ko'rsatish lozim [2]. Umumiy olib qaraganda, moliyaviy zarar bilan faoliyat yuritgan banklar tarkibida ham davlat, ham xususiy banklarning mavjudligini ta'kidlash mumkin. Bu esa, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalarning salbiy xususiyat kasb etayotganligini ham o'zida aks ettirib beradi, deb o'ylaymiz.

Prof. A.Bektemirov va boshqalar o'zlarining tadqiqotida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishadi [3]. Ularning fikricha, aktivlar rentabelligi (Return on Assets, ROA) ko'rsatkichi — bank rahbariyatining faoliyat samaradorligini ifodalasa, bank kapitali rentabelligi (Return on Equity, ROE) koeffitsiyenti bank aksionerlari uchun daromadlilik mezonini sifatida qaralishini asoslashga e'tibor qaratishadi. Shuningdek, ular bank daromadlilik ko'rsatkichlari sifatida sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati, kreditdan foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati, sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati va sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati kabi jihatlar bilan ifodalashga e'tibor qaratishadi.

S.Ziyodullayev bank aktivlarining rentabelligini baholashga qaratilgan o'zining yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qiladi [4]. U tadqiqotlari davomida TIF Milliy bank va AT Asakabankda aktivlarning rentabellik darajasining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi. Uning fikricha, sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'atining o'zaro mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish muhim ekanligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, banklarning investitsion faoliyati tarkibida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hajmini oshirish orqali foizli daromadlar ko'lamini oshirish lozimligini taklif etib o'tadi.

Q.Hamrayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida investitsion fondlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi. Jumladan, fond aktivlarining rentabelligini baholashga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, investitsion faoliyatda moliyaviy vositachilik sifatida banklarning roli kamayib borayotganligini ta'kidlab o'tadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda kompleks yondashuv qo'llanilib, miqdoriy va sifat tahlil usullari integratsiyasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini statistik va empirik ma'lumotlar asosida baholash hamda sotsiologik omillarni aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tahlil jarayonida deduktiv va induktiv yondashuvlar uyg'unlashtirildi: deduksiya orqali nazariy konseptual asoslar aniqlanib, mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganildi; induksiya orqali esa amaliy kuzatuv va empirik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda 2024-yil avgust oyida ATB "O'zsanoatqurilishbank" tizimi xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovdan olingan ma'lumotlar asos qilib olindi. So'rovnoma 901 nafar respondent ishtirok etib, ular orasida jins, yosh, ma'lumot darajasi, lavozim va hududiy joylashuv mezonlari bo'yicha kesim tahlillari o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlar STATA dasturida qayta ishlanib, chi-kvadrat (χ^2), F-statistika, regressiya modellari va korrelyatsion tahlil usullari yordamida baholandi. Shuningdek, kredit foiz stavkalari, bank daromadliligi, xodimlarning yoshi va ma'lumoti o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Natijalar asosida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda nomonetar omillar – inson resurslari, boshqaruv sifati va xodimlarning motivatsion jihatlarning ahamiyati ilmiy asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bundan ko'zlangan maqsad moliyaviy barqarorlik omillari qanday xususiyatlar bilan birgalikda rivojlanish tendensiyalariga ega bo'layotganligini baholash mumkin, deb o'ylaymiz.

1-jadval. So'rovnoma ishtirok etganlarning jins va ma'lumoti bo'yicha kesishma ma'lumoti

Jinsi	Ma'lumot darajasi					Jami
	Ilmiy darajali	Oliy (magistr)	Oliy (5 yillik)	Oliy (bakalavr)	O'rta maxsus	
Erkak	0.0022	0.0499	0.0665	0.4379	0.0211	0.5776
Ayol	0	0.0277	0.0865	.1375	0.1707	0.4224
Total	0.0022	0.0776	0.153	0.5754	0.1918	1

Pearson: Uncorrected $\chi^2(4) = 240.9898$, Design-based $F(4.00, 3604.00) = 60.2136$ $P = 0.0000$.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankda ishlaydigan respondentlarning 58 foizi erkaklardan iborat bo'lmoqda. Shuningdek, erkaklarning ma'lumot darajasi ayollarganikiga nisbatan yuqoriroq ulushlarni tashkil etmoqda, shuningdek, o'rta maxsus ma'lumotlilarning aksariyat qismi ayollar ekanligini qayd etish lozim. Shuningdek, bankda ishlaydiganlarning katta qismi bakalavr darajasiga ega ekanligini qayd etish lozim. Pearson k-skver koeffitsiyentining statistik ahamiyatga ega ekanligini aniqlash orqali mazkur so'rovnomaning jins va ma'lumot bo'yicha ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etishi darajasini so'rovnoma ishtirok etganlarning kredit siyosatiga nisbatan boshqa yondashuvlari bilan aloqadorlikda tahlil qilamiz. Bunda 1-jadvalda keltirilgan model ma'lumotlari asosida ayrim ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin. Biz bankning kredit foiz stavkalarining daromadliligiga nisbatan ta'sirini respondentlarning yondashuvlari asosida baholaymiz, bunda:

2-jadval. Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'siri omillarini baholash

	Umumiy holati		Shahar markazi		Shahar chekkasi	
	Coefficient	P>t	Coefficient	P>t	Coefficient	P>t
	F(6, 896)=9.58 Prob>F=0.0000		F(6, 896)=7.50 Prob>F=0.0000		F(6, 896)=3.53 Prob>F=0.0019	
Yoshingiz	-0.0111744	0.164	-0.0068246	0.457	-0.0260161	0.134
Jinsingiz	0.5848224	0	0.6418505	0	0.3651383	0.285
Ma'lumotingiz	-0.0416172	0.593	-0.0381733	0.665	-0.0708851	0.668
Sizning bankingiz quyidagilarning qaysi biri asosida kredit foiz stavkalarini belgilagani eng yaxshi?	0.0901576	0.117	0.1094273	0.86	-0.0191766	0.891



Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit scoring (KAMI) qanchalik muhim?	0.4734377	0	0.4079019	0	0.6951354	0
Kreditlar qaytmasligida quyidagilardan qaysi biri asosiy sabab?	-0.0137176	0.798	-0.0204391	0.731	0.0237649	0.848
/cut1	0.3754127		0.5835814		-0.5842361	
/cut2	2.584171		2.750567		1.879179	
/cut3	5.162689		5.309335		4.563697	
/cut4	6.12139		6.422789		4.977078	

Birinchidan, yosh yoki ma'lumot darajasining o'zgarib borishi ushbu savolga nisbatan yondashuvni o'zgartirmayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, bank xodimlari o'rtasida o'zgaras qadriyatning shakllanganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda, bank xodimlari munosabatlarida bir tizimlilikni kuzatish nobarqaror bo'lmoqda.

Ikkinchidan, erkak bank xodimlari kredit foiz stavkasini va kredit oluvchining moliyaviy layoqatini baholash kreditning bank daromadligiga ta'sirida asosiy omil vazifasini o'tayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, erkak bank xodimlari ayollarga nisbatan bank krediti foiz stavkasini muhim, deb hisoblamogda. Shahar chekkarog'ida joylashgan bankda esa, erkak bank xodimlari bu to'g'risida nobarqaror va statistik ahamiyatga ega bo'lgan umumiy yondashuvga ega ekanligini ko'rish mumkin. Shuningdek, kredit oluvchining kreditga layoqatliligi har qanday holda ham baholash muhim ekanligini qayd etish lozim.

Uchinchidan, kredit foiz stavkasining bank daromadligiga ta'sirini baholashda bank xodimlari uni belgilash asoslari va kredit qaytmasligi omili kabi jihatlarni muhim ahamiyatga ega emas degan xulosaga ega bo'lishmogda. Boshqacha aytganda, ushbu savollar borasidagi javoblarning kredit foiz stavkasining daromadlilikka ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'layotganligini kuzatmaymiz.

Fikrimicha, bank xodimlari kredit oluvchining kreditga layoqatliligi baholash bankning daromadlilikiga eng muhim ta'sir etuvchi omil ekanligini qayd etishmogda. Umumiy holatda va shahar markazida joylashgan bank ofisida faoliyat olib boruvchi erkak xodimlar kredit foiz stavkalari bank daromadligiga ta'sir etishini asosiy omil sifatida ko'rishayotganligini ta'kidlash lozim. Boshqa omillar esa statistik jihatdan o'zining barqaror ta'siriga ega bo'lmayotganligini kuzatish mumkin.

Bankning boshqaruvni tashkil etishga nisbatan bank xodimlarining demografik ko'rsatkichlari va moliyaviy ko'rsatkichlarga nisbatan yondashuvlari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirishga e'tibor qaratamiz (2-jadvalga qarang):

Birinchidan, respondentlardan bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarda ijobiy xususiyat kasb etish "rais qarori"da ekanligin kuzatamiz, aksincha "respublika boshqarma boshliqlari qarori" kategoriyasi salbiy xususiyat (10 foizlik ehtimol bilan) sifatida aksariyat ishtirokchilar tomonidan belgilangan.

3-jadval. Bank boshqaruvining bankning moliyaviy siyosatiga ta'sirini baholash

Ko'rsatkich ta'siri	Ijobiy ta'sir		Salbiy ta'sir	
Statistik ahamiyatlilik	F(21, 881)=2.62 Prob>F=0.01		F(21, 881)=1.55 Prob>F=0.0552	
Ko'rsatkichlar	Coeff.	P>t	Coeff.	P>t
Rais_qarori (ijobiy) / Respublika boshqarma boshliqlari qarori (salbiy)	(base outcome)			
Respublika boshqarma boshliqlari qarori (ijobiy) / Rais qarori (salbiy)				
Yoshingiz	-0.013	0.327	-0.021	0.068
Jinsingiz	0.559	0.011	0.237	0.218
Ma'lumotingiz	-0.008	0.943	-0.13	0.231
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	0.224	0.09	-0.064	0.573
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit scoring (KAMI) qanchalik muhim?	0.201	0.078	0.226	0.056
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.236	0.001	-0.094	0.181
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.083	0.255	-0.109	0.108

_cons	-2.52	0	0.659	0.267
Viloyat boshlig'i qarori				
Yoshingiz	-0.032	0.28	0.007	0.6
Jinsingiz	-0.056	0.918	0.199	0.328
Ma'lumotingiz	-0.202	0.448	-0.127	0.282
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	0.263	0.41	-0.093	0.433
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	-0.48	0.131	0.23	0.068
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.086	0.667	-0.051	0.469
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.083	0.675	-0.123	0.086
_cons	-0.659	0.653	-0.539	0.413
Bank boshqaruvchimiz qarori				
Yoshingiz	0.0211	0.053	0.029	0.038
Jinsingiz	-0.08	0.638	0.03	0.894
Ma'lumotingiz	-0.173	0.083	-0.121	0.33
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	0.175	0.069	0.047	0.725
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	-0.139	0.217	0.202	0.17
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.191	0.002	-0.133	0.123
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.015	0.795	-0.088	0.256
_cons	-1.14	0.044	-1.68	0.022

Bu esa, markaziy boshqaruvda bank raisining qarorini undan qabul qilib oluvchilar boshqa tarzda talqin qilishadi, degan xulosa kelib chiqishi mumkin.

Ikkinchidan, ayrim hollarda bank xodimlari tomonidan rais qarorini ham salbiy xususiyat kasb etishini ta'kidlaydigan holatlar mavjudligini ko'ramiz. Masalan, kichik yoshdagilar, kredit oluvchining layoqatini tekshirishni muhim deb hisoblaydiganlar va foizsiz daromad tarkibini aniq bilmasligi ortib borishi holatlariga moyillik rais qarorini salbiy deb hisoblashga asos bo'lmoqda. Shuningdek, respublikasa boshqarma boshliqlarining qarorlarini ijobiy tendensiya bilan baholanganlar – erkak xodimlar, kredit oluvchining layoqatini tekshirishni muhim deb hisoblaydiganlar va foizli daromad tarkibini aniq bilish ortib borishi holatlariga moyil bo'lishini qayd etish lozim.

Uchinchidan, viloyat bank ofisining rahbarlari qarorini ijobiy baholanishi har qanday holatda ham statistik ahamiyatga ega bo'lmayotganligini ta'kidlash lozim. Biroq, 10 foizlik ehtimollik bilan kredit oluvchining layoqatini tekshirishni muhim deb hisoblaydiganlar va foizsiz daromad tarkibini aniq bilmasligi ortib borishi holatlariga moyillik viloyat bank rahbarining qarorini salbiy ta'sirga deb baholanayotganligini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, bankning to'g'ridan-to'g'ri rahbarining qarorini ijobiy deb hisoblaydiganlar – yoshi kattalar (5 foizlik ehtimol bilan), oliy ma'lumotga ega bo'lmaslik, kredit foiz stavkasini (10 foizlik ehtimol bilan) muhim deb hisoblaydiganlar va foizli daromad tarkibini aniq bilish ortib borishi holatlariga moyil bo'lishini qayd etish lozim. Bank boshqaruvchisining qarori yoshi kattalar tomonidan 5 foizlik ehtimol bilan salbiy xususiyat kasb etadi, degan mazmundagi yondashuv ko'rsatilmoqda. Bunda bank boshqaruvchisining qarori viloyat rahbari qaroridan ko'ra ta'sirli ahamiyatga ega ekanligini kuzatish mumkin.

Umumiy olib qaraganda, bank boshqaruvi raisi va bank boshqaruvchining qarorlari bankning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir etishi nuqtai nazaridan ko'proq statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Aksincha, salbiy ta'sirga ega bo'lish holatlari respublika boshqarma boshliqlari va viloyat rahbarlarining qarorlari ta'siri ostida shakllanishi respondentlar tomonidan qayd etilmoqda.

Fikrimizcha, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank boshqaruvi raisining qarorlarini tushuntirish ishlariga qaratilgan seminar treninglarni yanad ko'proq amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda makaziy apparat boshqarma boshliqlari va hududiy bank ofislari boshqaruvchilarining yondashuvlari va talqinini o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, deb o'ylaymiz.



Mazkur holatda bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan nomonetar omillarni yanada takomillashtirishga nisbatan imkoniyatlar vujudga keladi, deb hisoblaymiz. Natijada, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida ijobiy siljishlar kuzatilish mumkin.

4-jadval. Bank boshqaruvining qarorlarining sifatini baholash

Ko'rsatkich ta'siri	Bank (filiali) boshqaruvchisi qarori		Bank markaziy boshqaruvi qarori	
Statistik ahamiyatlilik	F(28, 874)=2.86 Prob>F=0.0000		F(28, 874)=25.67 Prob>F=0.00	
Ko'rsatkichlar	Coeff.	P>t	Coeff.	P>t
Juda zamonaviy				
Yoshingiz	-0.024	0.019	-0.007	0.523
Jinsingiz	-0.054	0.758	-0.184	0.323
Ma'lumotingiz	0.127	0.225	0.204	0.061
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	-0.421	0	-0.528	0
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	-0.374	0.008	-0.542	0.003
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.123	0.045	0.167	0.009
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.029	0.625	-0.046	0.478
_cons	0.962	0.076	0.497	0.402
Zamonaviy	(base outcome)			
Tushunarsiz				
Yoshingiz	-0.022	0.135	06	0.688
Jinsingiz	-0.228	0.333	-0.384	0.083
Ma'lumotingiz	-0.29	0.024	-0.23	0.065
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	0.129	0.387	0.022	0.872
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	0.221	0.105	0.411	0.001
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.015	0.858	-0.06	0.504
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.086	0.294	0.054	0.488
_cons	-0.299	0.706	-0.644	0.385
Eskicha				
Yoshingiz	-0.025	0.573	-0.007	0.735
Jinsingiz	0.05	0.929	-0.208	0.672
Ma'lumotingiz	-0.376	0.226	-0.469	0.074
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	0.155	0.638	0.441	0.117
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	-0.636	0.255	-0.658	0.147
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.064	0.744	0.0311	0.882
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.062	0.762	-0.081	0.719
_cons	-0.664	0.747	-0.892	0.539
Juda eskicha				

Yoshingiz	-0.031	0.502	-0.247	0.023
Jinsingiz	-1.57	0.166	-14.5	0
Ma'lumotingiz	-0.486	0.272	-1.08	0.083
Bank kredit foiz stavkasining bank daromadliligiga ta'sir etish darajasini baholang	1.03	0.004	0.79	0.155
Qarz oluvchining layoqatini tekshirishda kredit skoring (KAMI) qanchalik muhim?	-0.49	0.247	0.108	0.855
Sizningcha, bankingizning foizli daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	-0.244	0.426	-10.8	0
Sizningcha, bankingizning foizsiz daromadlari tarkibida eng katta ulush nima bo'yicha?	0.025	0.934	0.281	0.483
_cons	-0.567	0.816	30.1	0

Tadqiqotlarimiz davom ettirgan holda bank boshqaruvining qarorlarini o'zini alohida baholashga e'tibor qaratamiz bu orqali esa yuqoridagi ilmiy xulosalarni qaytadan tahlil qilishga va tekshirishga imkoniyat vujudga keladi, deb o'ylaymiz.

Bunda biz yuqoridagi mustaqil o'zgaruvchilarning bank boshqaruvchilarning qarorlarini qanday bahoga ega ekanligini tahlil qilishga e'tibor qaratamiz.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank boshqaruv qarorlari bank xodimlari tomonidan baholanishi uning moliyaviy barqarorlik miqyosiga nisbatan yondashuvlarni shakllantirishga asos bo'ladi. Bunda quyidagi ilmiy xulosalarni ishlab chiqish mumkin, deb o'ylaymiz:

Birinchidan, respondentlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni zamonaviy deb qarashlari asosiy omilga aylanmoqda. Barcha holatlarda ushbu omil ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi qadriyatga aylanib ulgurganligini kuzatish mumkin.

Ikkinchidan, yoshi katta bo'lib borishi bank ofisi boshlig'ining qarorlarini juda zamonaviy deb qarash shakllansa, ma'lumotning oshib borishi (10 foizlik ehtimollik bilan) markaziy boshqaruv qarorlarini juda zamonaviy deb hisoblashga olib keladi ekan. Shuningdek, bank kredit foiz stavkasi, kredit oluvchining kreditga layoqatini tekshirish va foizli daromadlarning ulushining shakllanishiga nisbatan to'g'ri proporsional yondashuvning ortib borishi qarorlarni juda zamonaviy deb qarashga sabab bo'layotganligini ta'kidlash lozim.

Uchinchidan, bank faoliyatiga oid bo'lgan qarorlarning tushunarsiz bo'lishi ko'proq markaziy boshqaruv qarorlariga oid bo'layotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, ayol bank xodimlari va ma'lumotning pasayib borishi (10 foiz ehtimollik bilan), kredit oluvchining kreditga layoqatini tekshirish muhim deb hisoblaydiganlar qarorlarni tushunarsiz deb qarashadi ekan. Shuningdek, xodimlarning ma'lumoti kamayib borishi bank ofisi rahbarining qarorlarini tushunarsiz deb hisoblashga olib kelmoqda ekan. Shu bilan birga, bank markaziy boshqaruv qarorlarini eskicha deb qaraydiganlarning ma'lumoti ham pasayib borish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, boshqaruv qarorlarini juda eskicha deb hisoblanishida bank markaziy boshqaruv qarorlari kattaroq ulushga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bank ofisi rahbarining qarorini juda eskicha deb hisoblaydiganlar kredit foiz stavkasining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini juda muhim deb hisoblaydiganlar ekanligini kuzatish mumkin. Yoshning kattalashib borishi, ayol bank xodimlari va ma'lumoti yuqori bo'lmaganlar va bank foizli daromadlari moliyaviy barqarorligiga ta'siri muhim deb hisoblamaydiganlar bank markaziy boshqaruv qarorlarini juda eskicha deb qarashlariga olib kelmoqda ekan.

Bizningcha, hududiy bank ofislari rahbarlarining qarorlari xodimlar tomonidan doimiy muloqot natijasida qabul qilinganligi sababli bank xodimlarida tushunarsiz yoki eskicha xususiyat kasb etadi, degan xulosaga olib kelayotganligi yo'q. Bu esa, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank ofislari rahbarlarining roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ifodalab bermoqda. Ma'lumot darajasining yuqori bo'lmashligi boshqaruv qarorlarining tushunarsiz yoki eskicha deb qarashga olib kelayotganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, yoshning katta bo'lib borishi bank boshqaruv qarorlarining tushunarsiz deb qarashga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'rta yosh bank xodimlarining ma'lumoti yuqori qatlamining asosiy faoliyat pozitsiyalariga tayinlanishi bank moliyaviy barqarorligiga barqaror ijobiy ta'sir etishini ta'kidlash lozim.

Banklarning foizli daromadlariga nisbatan bank xodimlarining qarashlari va ularning qanday xarakter bilan unga yondashuvlarini aniqlash maqsadida 1-jadvalda keltirilgan model ma'lumotlaridan foydalanib, ilmiy xulosalarni shakllantirishga e'tibor beramiz:

Birinchidan, kredit va lizing bo'yicha to'lovlar bankning asosiy foizli daromad manbalari ekanligini kuzatish mumkin. Bunda bank xodimlarining aksariyat qismi mazkur kategoriyani asosiy daromad elementi sifatida qaramoqda.



5-jadval. Bankning foizli daromadlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash, $F(20, 882)=24.11$, $\text{Prob}>F=0.0000$

Ko'rsatkichlar	Coeff.	P>t
Kredit va lizing bo'yicha to'lovlar	(base outcome)	
Boshqa banklardagi hisobvaraqlar		
Yoshingiz	-0.062	0.056
Jinsingiz	0.273	0.52
Ma'lumotingiz	0.269	0.363
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	0.222	0.63
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	0.141	0.38
_cons	-2.86	0.067
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar		
Yoshingiz	-0.05	0.051
Jinsingiz	1.26	0.004
Ma'lumotingiz	0.435	0.021
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	1.18	0.004
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	0.235	0.242
_cons	-6.89	0
Markaziy bankdagi hisobvaraqlar		
Yoshingiz	-0.173	0
Jinsingiz	1.18	0.234
Ma'lumotingiz	-0.444	0.705
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	-13.6	0
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	-11.8	0
_cons	25.7	0
Bilmayman		
Yoshingiz	-0.027	0.056
Jinsingiz	0.976	0
Ma'lumotingiz	0.219	0.11
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	0.351	0.151
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	-0.032	0.769
_cons	-3.43	0

Ikkinchidan, boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar yoshi kichik bank xodimlari nazarida muhim ekanligini kuzatish mumkin. Bunda respondentlarning o'rtacha yosh 36,6 ekanligini inobatga olish zarur hisoblanadi.

Uchinchidan, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar yoshning kichik bo'lishi (10 foizlik ehtimol bilan), erkak bank xodimlari, ma'lumotning yuqorilashib borishi kabi jihatlar bilan to'g'ri proporsional bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, bankning Markaziy bankdagi hisobvaraqlaridan oladigan foizli daromadiga katta ehtimol bilan yoshning kichik bo'lishi, bank ofisini shahar chetida joylashuvi va rentabellikni muhim deb bilish kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan.

Umuman olganda, bankning foizli daromadlarini shakllanishiga nisbatan bank xodimlarining yondashuvi bir tizimlilik xususiyatiga ega bo'lmayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, bankning moliyaviy natijalari va rentabelligi borasidagi ma'lumotlarni yanada ochiqlash va uni bank xodimlari faoliyatining muhim natijasi ekanligini tushuntirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi, deb o'ylaymiz. Bu esa, bank instituti va xodimlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi.



Foizli daromadlarni tahlil qilish barobarida, bankning foizsiz daromadlariga nisbatan bank xodimlarining yondashuvini ko'rib chiqishga e'tibor qaratamiz. Bunda 5-jadval ma'lumotlarida keltirilgan ekonometrik tahlil ma'lumotlariga tayanamiz.

6-jadvalda keltirilgan modelda bankning foizsiz daromadlariga nisbatan bank xodimlarining yondashuvlarini ko'rish mumkin. Unda keltirilgan ekonometrik tahlil ma'lumotlaridan foydalanib, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, bank xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmat va vositachilik olinadigan to'lovlar hisobidan shakllanadigan daromad bankning asosiy foizsiz daromadlari ekanligi qayd etib o'tilgan. Bu esa, ushbu kategoriya bank ofislarida asosiy faoliyat turi bo'lib ulgurganligi bilan alohida izohlash mumkin.

6-jadval. Bankning foizli daromadlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash, $F(20, 882)=24.11$, $Prob>F=0.0000$

Ko'rsatkichlar	Coeff.	P>t
Aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralarning qaytarilishi		
Yoshingiz	0.011	0.359
Jinsingiz	0.436	0.02
Ma'lumotingiz	0.012	0.899
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	-0.185	0.414
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	-0.116	0.216
_cons	-0.86	0.159
Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik bo'yicha		
(base outcome)		
Xorijiy valyutadagi foyda		
Yoshingiz	0	0.998
Jinsingiz	0.604	0.01
Ma'lumotingiz	0.204	0.168
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	-0.027	0.924
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	0.041	0.705
_cons	-2.69	0.001
Investitsiyadan olingan foyda va dividendlar		
Yoshingiz	0.006	0.79
Jinsingiz	0.878	0.013
Ma'lumotingiz	-0.063	0.741
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	-0.769	0.168
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	01	0.996
_cons	-2.45	0.07
Bilmayman		
Yoshingiz	-0.016	0.262
Jinsingiz	0.895	0
Ma'lumotingiz	0.398	0.003
Siz ishlaydigan bank joylashgan hudud	0.16	0.514
Sizning bankingiz moliyaviy barqarorligiga quyidagilardan qaysi biri ijobiy ta'sir etadi	-0.135	0.215
_cons	-2.86	0

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qiziqarli jihatga e'tibor berish lozim, foizsiz daromadlarning shakllanishining xususiyatlari faqat erkak bank xodimlari tomonidan bildirilgan yondashuvlar bilan to'g'ri proporsional ekanligini ko'rish mumkin. Birgina, b to'g'risidagi axborotlarni bilmayman deb javob berganlarning ma'lumot olganlik darajalari oshib borish tendensiyasini aks ettirmoqda.



Umuman olganda, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xodimlarni yondashuvlari va tasavvurlarini aniqlash orqali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Bu esa, bank tomonidan xodimlarni bank faoliyatiga yanada yaqinroq jalb etish uchun turli trening seminarlar tashkil etish va ularning xulosalarini inobatga olgan holda daromadlarni shakllantirishga e'tibor berish muhim hisoblanmoqda.

Fikrimizcha, bank tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy natijalar va rentabellik to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiqlab borish, bank faoliyatini yanada takomillashtirishda bank xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan seminar tadbirlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Bu esa, banklarning daromadlilikini ta'minlash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каптел П. Ўзбекистон давлат банкларини хусусийлаштириш яна кечроққа қолдирилиши мумкин — Fitch. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/03/19/privatization/>
2. Ўзбекистон банкларининг ярим йиллик соф фойдаси ўтган йил мос даврига нисбатан 560 млрд сўмга камайди. <https://bankers.uz/news/1611>
3. Бектемиров А., Маликова Д. М., Аҳмедов Ҳ. Ф. Тижорат банки фаолияти самарадорлигини ошириш истиқболлари // Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-154.
4. Зиёдуллаев С. Тижорат банклари активларининг рентабеллигини оширишнинг долзарб масалалари // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 43-48.
5. Ҳамраев Қ.И. Ўзбекистон Республикаси инвестицион фондларнинг соф активларидан самарали фойдаланишни эконометрик моделлаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Урганч: УрдУ, 2020. -55 б.
6. Sujud, H., & Hashem, B. (2017). Effect of Bank Innovations on Profitability and Return on Assets (ROA) of Commercial Banks in Lebanon. International journal of economics and finance, 9, 35.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100